

## JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ TURLARI

Usmonova Umida

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

v53861490@gmail.com

### Annotatsiya:

Maqolada badiiy obrazning o‘zbek adabiyotshunosligi uchun nisbatan yangi hisoblangan antagonist, zid xarakterli obraz, o‘zgaruvchan obraz, barqaror obraz, murakkab obraz, bir o‘lchamli obraz, zaxira (birja) obraz, xarakter arxetipi kabi turlari misollar asosida tushuntiriladi.

### Annotation:

The article explains on the basis of examples such types of character as relatively new for Uzbek literary studies, such as antagonist, folga, dynamic, static, round, flat, stock, character archetype

**Kalit so‘zlar:** ikkinchi darajali obraz, antagonist, zid xarakterli obraz, o‘zgaruvchan obraz, barqaror obraz, murakkab obraz, bir o‘lchamli obraz, birja obraz, xarakter arxetipi.

**Key words:** dueteragonist, antagonist, confidant, folga, dynamic, static, round, flat, stock character, character archetype.

**Obraz** bu – asarda shaxs sifatida taqdim etilgan inson, hayvon, narsa. Rus olimi L.I.Timofeev obrazga shunday ta’rif beradi: “Obraz – to‘qima yordami bilan yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va, ayni chog‘da, konkret manzarasidir”<sup>1</sup> O‘zbek adabiyotshunosi D. Quronov esa badiiy obrazni quyidagicha izohlaydi: “Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o‘sha borliqning oddiygina aksi emas, yo‘q, u borliqning san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir... badiiy borliqdir”<sup>2</sup> Jahon adabiyotshunosligida obraz turlariga oid ba’zi tushunchalar borki, bu tushunchalar o‘zbek adabiyotshunosligi uchun nisbatan yangi. Ushbu tushunchalarni bilish yozuvchilarga obraz yaratishda, muharrir va tanqidchilarga obraz sifati va asar qiymatini baholashda yordam beradi. Quyida jahon va o‘zbek adabiyoti namunalari, xususan, “Kecha va kunduz” romani asosida obraz turlari haqida ma’lumot beramiz.

<sup>1</sup> Л. И. Тимофеев. Основы теории литературы. М. Просвещение. 1971, 62-бет

<sup>2</sup> Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish - Toshkent. “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”. 2004, 242-бет.

Dunyo adabiyotshunoslari ikkinchi darajali obrazni turlarga ajratadilar: “Dueteragonist uch roldan birini o‘ynaydi:

1. Yordamchi: bosh obrazni eng yaxshi do‘st va yordamchi sifatida kuzatib boradi. (Nik Kerruey, Tom Soyvor, Sem, Sancho Panza, Akbarali)
2. Antagonist: uning maqsadi bosh obrazning maqsadiga zid bo‘lsa... hikoyada asosiy rol o‘ynasa, u dueteragonist hisoblanadi. (Blazes Boylan, Bennet xonim)
3. Sevgi jufti: ...ikkinchi eng muhim, odatda, obrazning sevgan insoni bo‘ladi”<sup>3</sup>. (Dulseneya, Vronskiy, Kitty)

Yordamchi obraz bosh obraz ishonishi mumkin bo‘lgan (confidant) yoki unga ishonadigan obrazlar bo‘lishi mumkin. Odatda, ular bir-biri uchun qo‘llab-quvvatlash manbayidir. Masalan, Akbarali<sup>4</sup> Miryoqubga suyanadi, Miryoqubni moddiy qo‘llab-quvvatlovchi manba esa Akbarali. Akbarali uning ma‘naviy quvvat manbayi deyish ham mumkin, ya‘ni Akbarali ustidan hukmronlik Miryoqub shaxsini “semirtirib”, uning ishbilarmon bo‘lib borishiga turtki beradi.

Bosh obrazga to‘siq obraz (antagonist) – obraz nimaga erishmoqchi bo‘lishidan qat’iy nazar, bu yo‘lda unga to‘siq bo‘ladi, asosiy ziddiyatni yaratadi. Ular tufayli dramatik sahnalar yuzaga keladi. Masalan, Deyzi asosiy, Tom ikkilamchi antagonist. Getsbining maqsadiga yetishishiga asli Tom emas, Deyzi to‘siq bo‘ldi, chunki turmushga chiqish va ketish qarorini u qabul qildi. Demak, antagonistni bosh obraz maqsadiga qarab belgilash kerak. Antagonist obrazning o‘zida bo‘lishi ham mumkin: o‘ziga ishonmaslik, ichki kechinmalar azobi, turli fobiyalar yoki yomon odatlar (giyohvandlik kabi). Masalan, Dino Butsatining “Yetti qavat” hikoyasida Jozeppening “tuzalib ketish” maqsadiga uning o‘ziga ishonmasligi to‘siq bo‘ladi, u o‘zi uchun antagonist vazifasini o‘taydi. Zebi uchun Miryoqub, Poshshaxon uchun Zebi, Razzoq so‘fi uchun eshon antagonist bo‘lsa, Miryoqub uchun antagonist uning o‘zi, ma‘naviy immunitet yetishmasligi katta ehtimol bilan uning yaxshilanish maqsadiga to‘siq bo‘ladi.

Zid xarakterli obrazlar (folga) – bir obraz xarakteridan tubdan farq qiluvchi ikkinchi obraz. Folga qarama-qarshi xususiyatlar qiyosi asosida bosh yoki boshqa obrazlarning xarakterini chuqurroq tushunish uchun zarur. Masalan, bir obraz saxiy, jasur bo‘lsa, folga qo‘rqoq, ziqna bo‘ladi. Folga dushman degani emas. Folga o‘z qarama-qarshisining do‘sti bo‘lishi mumkin. Masalan, Nik va Tom Getsbi uchun folgadir. Nik real fikrlovchi, bosiq, axloqli, Getsbi esa xayolparast, quvnoq, axloqsiz. Tom zodagon kelib chiqishga ega, avvaldan boy, qo‘pol, Getsbi esa ishchilar sinfidan, omonat boylikka ega, ancha xushmuomala. Ko‘p holda folga antagonist bo‘ladi. Janob Karenin antagonist va folga. U Annaning maqsadiga qarshi o‘laroq ajrashishga ruxsat bermadi va uning xarakteri Anna xarakteriga zid. Folgalar bosh, ikkinchi va uchinchi darajali obraz bo‘lishi mumkin. Masalan, Akbarali va Miryoqub, Razzoq so‘fi va Qurvonbibi, Saltanat va Zebi.

<sup>3</sup> Dan Brown. What is deuteragonists in Literature? // MasterClass. <https://www.masterclass.com/articles/what-is-a-deuteragonist-in-literature>, Sep 4, 2021

<sup>4</sup> Misollar, asosan, “Kecha va kunduz asaridan olindi.

Jahon adabiyotshunosligida obrazlarning sifat bo'yicha quyidagi turlari ajratiladi:

O'zgaruvchi obraz (dynamic) – “vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada o'zgaradigan xarakter”<sup>5</sup>. Masalan, Nik Kerruey “u Uoll stritda o'rniga ega bo'lishni istagan ishtiyoqli bola edi. Roman oxiriga kelib Nikning butunlay xafsalasi pir bo'ldi. Uoll stritdagi hamma narsadan va boy do'stlaridan nafratlandi”<sup>6</sup>. Bu o'zgarish obrazning qarashlari, xarakteri, ruhiyati bilan belgilanadi. Miryoqub, Razzoq so'fi yakunda sezilarli darajada o'zgarishga uchraydi.

Barqaror obraz (static) – “hikoya davomida o'zgarmaydi. O'quvchilar xarakter rivojlanishini namoyon etadigan dinamik obrazlarga ko'proq qiziqishadi, ammo qiziqarli statik belgilar yaxshi hikoya qilishda yaxshi ahamiyatga ega”. “Ikkinchi darajali belgilar, folga, kichik belgilar, antagonistlar ajoyib statik belgilarni yaratishi mumkin”<sup>7</sup>. Ularning qarashlari, xarakteri o'zgarishsiz qoladi. Ular bosh obrazning otasi, ustози, dushmani kabilar bo'lishi mumkin. Getsbi, Jordan Beyker roman oxirigacha statik holda qoladi. Otabek asarning birinchi epizodida mustamlaka bo'lib qolish sabablarini mushohada qiladi va rus bosqiniga qarshi bo'ladi, yakunda vatan himoyasi uchun ruslarga qarshi urushga kiradi.

Murakkab, ko'p o'lchamli obraz (round) – asar davomida chuqurligi va murakkabligi aniq bo'lgan ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega obraz. U insonning psixologik murakkabligini namoyon etadi. Kitobxon mutolaa jarayonida murakkab obrazlarning turli xarakter xususiyatlari bilan tanishib boradi. U asarda maqsad va istak, ichki va tashqi ziddiyatlar, qarama-qarshi xususiyatlar, tarix va nutqiga ega bo'lishi mumkin. Getsbi, Jeyne Eyre, Ivan Karamazov xuddi shu xususiyatga ega. Miryoqubning sud orqali o'zini taftish etishi, ichki ziddiyatlari, o'ylari yoritilgan. Kitobxon uning yaxshi va yomon tomonlari, maqsadi, xarakatlarining sabablari, qisman bo'lsa-da o'tmishi bilan tanish. Shu sababli Miryoqubni murakkab obrazlar sirasiga qo'shish mumkin. Round xarakterlar ko'proq Stiven Dedalusdek dinamik sifatga ega bo'ladi, ammo Elizabet Bennet va Getsbi kabi statik bo'lishi ham mumkin. Bir o'lchamli obraz (flat) – murakkab his-tuyg'ular, shaxsiyatni ifodalamaydi. Roundga nibatan ancha tor. Flat xarakterning murakkabligi bo'yicha sifat bo'lib, uni statik bilan chalkashtirmaslik kerak. Flatni ikki turga ajratish mumkin. Birinchisi, shunchaki bir qatlamli fikrlash tarzi keng yoritilmagan yoki dunyoqarashi “jo'n”, xarakteri roundga nisbatan tor protagonist, duteragonist. Masalan, Zebi. Kitobxon Zebini faqat atrofdagilar ta'sirida harakat qilishini ko'ra oladi. U murakkab xarakter va hissiyotlarni namoyon etmaydi. Ikkinchisi, voqeani rivojlantirish uchun xizmat qiluvchi shaxsiyati kam yoritilgan uchinchi darajali obraz. Obrazning xarakter sifati nuqtayi nazardan yana bir turi qat'iy shaxsiy xususiyatlar to'plamiga ega bo'lgan birja (stock) obrazdir. O'zgaras, cheklangan xususiyatlar bilan tasvirlangan bunday obrazlar arxetip obrazlar deb ham yuritiladi. Ular odatda bir o'lchamli va statik bo'lib,

<sup>5</sup> Kit Kittelstad. Types of characters in Fiction. // Yourdictionary. <https://examples.yourdictionary.com/types-of-characters-in-fiction.html>

<sup>6</sup> Shu manba

<sup>7</sup> Devy Chesson. Static Characters va Dynamic Characters: How to use both. // Kindlepreneur. <https://kindlepreneur.com/static-character/>, March 24, 2022.

rivojlanmaydi, ya'ni ularni alohida inson sifatida tanib olish mushkul. Ular odatda qaysi davrda yaratilgan asarda gavdalanitirilganiga qaramay, bir xil vazifani bajaradi yoki bir xil tasvirga ega bo'ladi, masalan, qiyin vaziyatda qolgan begunoh qiz obrazi yovuzlikni tushuntirish uchun asarda mavjud. Zebi ham Qizil qalpoqcha kabi kitobxonga ochko'zlik va uning oqibatlarini tushuntiradi. Agar birja obrazlarning vazifasi torayib, tanib olish juda oson holga kelsa, bir vazifa va bir xarakter xususiyatidan boshqa xarakter xususiyatni namoyon etmasa, u streotipga aylanadi. Jadid adabiyotida ko'p foydalanilgan din peshvolari "Kecha va kunduz"ga streotip holida kirgan. Kitobxon domla, imom, eshon obrazi uchrashi bilan "Bu ham riyokor, manfaatparast, illatlarga ega din peshvosi", -degan xayolga boradi. Shuningdek, ular juda tor tasvirga ega bo'lib, faqat din peshvolari riyokor holatda, degan fikrni berish uchun boshqa qiyofa va boshqa pozitsiyada qaytariladi. Aslida, streotiplarni qo'llash yozish mahoratining sustligini bildiradi. Cho'lpon bir xil turdagi streotiplarni umumlashtirib arxetipga aylantirishga harakat qilgan. Mana shunday streotiplar turli asarlarda takrorlanaversa, uning harakatlarini oldindan ko'rib turish mumkin bo'lsa, bu kitobxonni juda zeriktradi va bunday holatda ular cliche deb nomlanadi. Masalan, jadid adabiyotidagi boy obrazlari doimiy tarzda ochko'z, yovuz, xotinboz (ko'p holda pedofiliyaga moyil) inson qiyofasiga kelib qolgan. Aynan shunday qiyofadagi obrazdan qayta-qayta foydalanish asarlarning bir-biriga o'xshab qolishiga va qiymatini tushishiga sabab bo'lgan. Padarkush Toshmuroddan Mirzakarimboygacha boylar xotinboz va ochko'z. Bu davr adabiyotini izchillik bilan mutolaa qilayotgan kitobxon uchun boylar klishe holatiga kelgan. Ammo Qodiriy boy tipidagi insonga yangi sifatlarni berib, uni round xarakterdagi bosh obraz darajasiga olib chiqqan bo'lsa, Cho'lpon Akbaralining xotinbozligini farzandsizlik va san'atga oshuftalik bilan pardalab, uni klisheilikdan, streotipga ko'taradi. Akbarali yoshi katta ochko'z boy, ko'pxotinli, qo'pol, uquvsiz, miyasi faqat o'zining manfaatlari uchungina ishlaydi va kambag'allardan yulib yashashga odatlangan. U faqat shu sifatlar bilan qolganda streotip holatida qolar edi, ammo Cho'lpon milliy madaniyatga mos bo'lmagan illatlarnining kirib kelishini Akbaraliga yuklaydi va uni birja obrazga aylantiradi. Cho'lpon obrazni rivojlantirishni shu bilan to'xtatmaydi, Akbaralida shaxsiy qarashlarni ifodalamaydigan, boshqaruvni bilmaydigan o'yinchoq hokim, hokimiyatdan kelgan pullarini yeb-ichish-u kayf-safoga sarflaydigan xalqni boshqaruvchi obrazni tasvirlaydi va uni xarakter arxetipiga aylantiradi. Cho'lpon qisman bo'lsa-da, ichki azoblarni berish, vaziyatlarni xolis mulohazalash (shuningdek, ayol kishini hurmat qilishga urinish: u Zebining san'atidan bahramand bo'lishga qaror qilgan edi) ba'zi o'rinlarda sof bolalarga xos soddalik bilan tajanglik qilish kabi sifatlarini qo'shish orqali obrazni yanada murakkablashtiradi va uni yordamchi-ishonchli obraz darajasiga olib chiqadi.

Umumlashmalik xususiyatiga ko'ra xarakter arxetip turlari

<sup>8</sup> Qarang: Writing 101: The 12 Literary archetypes // <https://www.masterclass.com/articles/writing-101-the-12-literary-archetypes#-is-an-archetype-the-12-literary-archetypes#what-is-an-archetype>

Oksford lugʻatida arxetip soʻziga quyidagicha izoh berilgan: nusxalar tayyorlanadigan namuna, birinchi shakl, asl nusxa. Arxetip obraz (stock) va xarakter arxetip farqli tushunchalar hisoblanadi. Biz uchun tanish holatga kelgan, bir xil vazifani bajaruvchi, odatda bir xil vaziyatda tasvirlanuvchi obraz arxetip belgilardir (stock). Inson tabiatining baʼzi umumiy tomonlarini oʻzida jamlaydigan, bir xil xarakter xususiyatlarning ideal shakli aks etgan obraz. Masalan, har bir inson ichida bir qahramon bor. Insonlarda qahramonlikning turli xususiyatlari turli darajalarda namoyon boʻladi. Qahramon arxetip mana shu turli xildagi qahramonlik xususiyatlarini jamlovchi obraz hisoblanadi. Quyida baʼzi mashhur arxetip turlarini keltiramiz:

1. Qahramon – qiyinchilikka duch kelganlarni qutqaruvchi obraz (Alpomish, Mariya uchun Miryoqub qahramon).
2. Murabbiy – yoʻl koʻrsatuvchi obraz (Farhodning ustoz, jadid).
3. Oshiq – yurak amri bilan ish koʻruvchi obraz (Farhod)
4. Gʻamxoʻr – atrofdagilari haqida qaygʻuruvchi, yordam berishga doim tayyor obraz, koʻpincha ota-ona (Qurvonbibi).
5. Begunoh – axloqiy jihatdan toza xarakter, bola yoki bola kabi sof obraz (Zebi).
6. Qoʻzgʻolonchi – oʻrnatilgan tartib qoidalarga qarshi chiquvchi obraz (Unsin).
7. Boshqaruvchi – boshqalar ustidan nazorat oʻrnatuvchi, qonuniy va ruhiy boshqaruvchi obraz (noib toʻra, eshon).
8. Qiziquvchi – tavakkalchi, yangi tajribalar, sayohatlardan ilhom oluvchi obraz (Odissey)<sup>9</sup>.

Xulosa qilib aytganda, jahon adabiyotshunosligida obraz asarda oʻynagan roli, yaratilish sifati, umumlashma xarakterni ifodalashiga koʻra uch turga ajratiladi. Birja obrazlar va arxetipik xarakterlar yozuvchi uchun tayyor xomashyo bazasi boʻla oladi. Mualliflar qiymati baland kitob yozish uchun asarni dinamik xarakterdagi round obrazlar bilan toʻldirishga, flat, streetip, klishelardan foydalanmaslikka harakat qilishadi, kitobxonga avvaldan tanish arxetiplarni qiziqarli qilish uchun ularni noodatiy xususiyatlar bilan boyitadi, bir-birini yanada yorqinroq tasvirlashga yordam beruvchi folgalarni butun asar boʻylab joylashtirishadi, murakkab xarakterdagi bosh obraz atrofiga murakkab xarakterdagi yordamchi, antagonist, sevgi juftini joylashtiradi. Bizningcha, oʻzbek adabiyotshunosligida ham yuqorida keltirilgan tushunchalarning faol qoʻllanilishi badiiy qimmatini baland obrazlar yaratilishida samara beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тимофеев Л. И. . Основы теории литературы. М. Просвещение. 1971.
2. Dilmurod Quranov. Adabiyotshunoslikka kirish - Toshkent. “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”. 2004. – 242 bet.

<sup>9</sup> Writing 101: All the Different Types of Characters in Literature//<https://www.masterclass.com/articles/guide-to-all-the-types-of-characters-in-literature>

3. Dan Brown. What is deuteragonists in Literature? // MasterClass.  
<https://www.masterclass.com/articles/what-is-a-deuteragonist-in-literature>, Sep 4, 2021
4. Kit Kittelstad. Types of characters in Fiction. // Yourdictionary.  
<https://examples.yourdictionary.com/types-of-characters-in-fiction.html>
5. Devy Chesson. Static Characters va Dynamic Characters: How to use both. // Kindlpreneur.  
<https://kindlpreneur.com/static-character/>, March 24, 2022.
6. Writing 101: The 12 Literary archetypes // <https://www.masterclass.com/articles/writing-101-the-12-literary-archetypes#-is-an-archetype-the-12-literary-archetypes#what-is-an-archetype>
7. Writing 101: All the Different Types of Characters in Literature// <https://www.masterclass.com/articles/guide-to-all-the-types-of-characters-in-literature>